O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI,

QASHQADARYO VILOYAT HOKIMLIGI

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR “OLIMA” UYUSHMASI

# MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI TIZIMIDA O‘ZBEKISTON TARIXI VA MADANIYATI

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi 26-27-sentyabr, 2025-yil**

# HISTORY AND CULTURE OF UZBEKISTAN IN THE SYSTEM OF CENTRAL ASIAN CIVILIZATION

**International scientific-practical conference September 26-27, 2025**

# ИСТОРИЯ И КУЛЬТУРА УЗБЕКИСТАНА В СИСТЕМЕ ЦИВИЛИЗАЦИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**Международная научно-практическая конференция
26-27 сентября 2025 г.**

Qarshi-2025

# G‘O‘ZANING O‘SISH DAVRINI KONVALYUTSION NEYRON TARMOG‘INI QO‘LLASH ORQALI NAZORAT QILISH

**M.X.Hakimova-Qarshi davlat universiteti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada g‘o‘za navlarini yetishtirishda o‘sish va rivojlanish davrlarini kuzatish va uning holatidagi o‘zgarishini o‘rganish orqali kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishni ilmiy asoslash va iqtisodiy samaradorligini oshirish, g‘o‘zani rivojlanishini nazorat qiladigan konvalyutsion neyron tarmog‘ini maxsus tizimlarini ishlab chiqish haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** G‘o‘za, nav, kasallik, zararkunanda, hosildorlik, tola sifati, konvalyutsion neyron tarmoq, iqtisodiy samaradorlik

**Аннотация:** В данной статье приведены сведения о разработка специальных систем конвалюционних нейронных сетей, управляющих развитием хлопчатника, для повышения научной оправдание и экономической эффективности борьбы с болезнями и вредителями путем наблюдения за циклами роста и развития и изучения изменений его состояния в условиях выращивание сортов хлопка.

**Ключевые слова:** хлопчатника, сорт, болезнь, вредитель, урожайность, качества волокна, конвалюционних нейронных сетей, экономическая эффективность.

**Abstract:** This article provides information on the development of special systems of convolutional neural networks that control the development of cotton, to improve the scientific validity and economic efficiency of disease and pest control by monitoring the cycles of growth and development and studying changes in its condition in the conditions of growing cotton varieties.

**Key words**: cotton, variety, disease, pest, yield, fiber quality, convolutional neural networks, economic efficiency.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son Farmoni hamda «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-son qaroriga muvofiq, shuningdek, qishloq va suv xo‘jaligida raqamli va geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroridagi strategiyasida «Aqlli qishloq xo‘jaligi» texnologiyalarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishda raqamli va geoaxborot texnologiyalarini joriy etish, zamonaviy kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish orqali suv resurslarini boshqarish va undan foydalanish. Aqlli dala» raqamli texnologiyalarini joriy etish, tuproq, atrof-muhit va o‘simliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish va tizimli qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining barqaror o‘sishini ta’minlash. «Aqlli dala» yo‘nalishidagi texnologik yechimlarni joriy etish orqali o‘simlik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning raqamli texnologiyalarini ishlab chiqish va monitoringini olib borish, ilmiy, ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yilgan.

Respublikamizda g‘o‘za navlarini yetishtirishda tabiiy va antropogen omillar ta’sirida g‘o‘zaning o‘sish va rivojlanish davrlarini kuzatish va uning holatidagi o‘zgarishini o‘rganish, baholash, zararkunandalari va kasalliklarini biologiyasini urganish orqali, ekinlarning fitosanitar holati, zararli organizmlar populyatsiyalarining fenologik, yosh va hududiy tarqalishi hamda rivojlanishini nazorat qilib qarshi kurashishning ilmiy asoslari ishlab chiqish natijasida iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan g‘o‘zani rivojlanishini nazorat qiladigan konvalyutsion neyron tarmog‘ini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Respublikamizda g‘o‘za navlarini yetishtirishda o‘sish va rivojlanish davrlarini kuzatish va uning holatidagi o‘zgarishini o‘rganish, baholash, zararkunandalari va kasalliklarini biologiyasini o‘rganish orqali qarshi kurashishning ilmiy asoslash va iqtisodiy samaradorligi oshirish. G‘o‘zani rivojlanishini nazorat qiladigan

konvalyutsion neyron tarmog‘ini maxsus tizimlari ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy qilish.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

g‘o‘zani yetishtirish davrida zarar keltiradigan organizmlar zararkunandalari va kasalliklarni biologiyasini o‘rganish orqali, ekinlarning fitosanitar holati, zararli organizmlar populyatsiyalarining fenologik, yosh va hududiy tarqalishi va rivojlanishini nazorat qilib qarshi kurashishning ilmiy asoslari ishlab chiqiladi, iqtisodiy va ekologik samaradorligi aniqlash;

paxta yetishtirishda fitomonitoring asoslarini yaratish va ularni joriy etish tizimi ishlab chiqish asosida g‘o‘zaning rivojlanish holatini bilish va tahlil qilishdan, rivojlanishdan chetlashish (orqada qolish) sabablarini aniqlashdan va agroekologik holatini yaxshilash texnologiyasi ishlab chiqish;

g‘o‘zani rivojlanishini nazorat qiladigan konvalyutsion neyron tarmog‘ini qo‘llash orqali paxta yetishtirish xarajatlarini kamaytirish, muqobil darajaga olib kelish imkonini beradigan g‘o‘za yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshiradigan agrotexnologiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti.** Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari, g‘o‘zaning rayonlashgan o‘rta tolali “Buxoro-8” va ingichka tolali “Marvarid” navlari, “Tandem” stimulyatori, “Indoksamektin” insektitsidi, “Zeroks” fungitsidi olingan.

**Tadqiqotning predmeti.** Qashqadaryo viloyatida rayonlashgan g‘o‘zaning o‘rta tolali Buxoro-8 va ingichka tolali Marvarid navlarining zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurash, unib chiqishi, o‘sishi va rivojlanishi, barg sathi, fotosintetik potensiali, hosildorligi, paxtaning texnologik sifat ko‘rsatkichlari, iqtisodiy samaradorligini tadqiq qilish hisoblanadi.

**Tadqiqotning uslublari.** Dala tajribalarini o‘tkazish, tajribani joylashtirish, fenologik kuzatishlar, biometrik o‘lchovlar, hosilni aniqlash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash “Metodika agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy v polivnix xlopkovix rayonax” (1952), “Metodika Gosudarstvennogo sortoispitaniya selskoxozyaystvennix kultur” (1985, 1989), “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (2017) uslublari bo’yicha olib borildi. Matematik tahlillar Dospexov B.A. (1985) tomonidan ishlab chiqilgan uslublar asosida bajarildi.

**Тадқиқот натижалари.** G‘o‘zaning rivojlanish fazalarining davomiyligi va o‘suv davri haroratga, tuproq va havo namligiga, navning biologik xususiyatlariga, ekish muddatlariga, madanli o‘g‘itlar meyorlariga, dalaning fitosanitar holatiga bog‘liq holda o‘zgaradi.

O‘tkazilgan dala tajribalarimizda g‘o‘zaning o‘suv davri davomiyligi stimulyator, insektitsid va fungitsidlarni qo‘llashga bog‘liq holda o‘simlikning rivojlanishi dinamikasi o‘zgarib bordi (4.5-jadval).

**1-jadval. O‘suv davri davomiyligi.**

| | Tajriba variantlari | Ekish - unib chiqish | unib chiqish - chinbarg | chinbarg-shonalash | shonalash-gullash | gullash-pishish | O‘suv davri |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Buxoro-8 | | | | | | | |
| | Nazorat (st) | 8 | 12 | 24 | 28 | 53 | 125 |
| | Stimulyator | 8 | 12 | 24 | 26 | 50 | 120 |
| | Insektitsid | 8 | 12 | 24 | 26 | 51 | 121 |
| | Fungitsid | 8 | 12 | 24 | 26 | 51 | 121 |
| | Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid | 8 | 12 | 24 | 25 | 50 | 119 |
| Marvarid | | | | | | | |
| | Nazorat (st) | 8 | 12 | 24 | 27 | 52 | 123 |
| | Stimulyator | 8 | 12 | 24 | 25 | 48 | 117 |
| | Insektitsid | 8 | 12 | 24 | 25 | 49 | 118 |
| | Fungitsid | 8 | 12 | 24 | 25 | 49 | 118 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid | 8 | 12 | 24 | 25 | 47 | 116 |

G‘o‘za chigitlari nam bilan yetarli ta’minlanganligi tufayli barcha variantlarda 8 kundan keyin bir tekis to‘liq unib chiqdi. Tajribada g‘o‘zaning unib chiqish - chinbarg chiqarish davri barcha tajriba variantlarida 12 kunni tashkil etdi. Chinbarg - shonalash davrida ham barcha tajriba variantlarida 24 kunni tashkil etdi.

Shonalash - gullash davriga kelib nazorat paykalchalarda o‘simliklarning rivojlanishi 2 kunga kechika boshladi. Hashoratlar va kasallikning ta’sirida pishish davrida ham shunday holat kuzatildi.

G‘o‘zaning shonalash - gullash davrida o‘rta tolali Buxoro-8 navida nazorat variantda 28 kunni, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 26 kunni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 26 kunni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 26 kunni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 25 kunni tashkil etdi. Gullash – pishish davriga kelib nazoratda 53 kun, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 50 kun, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llanganda 51 kun, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 51 kun, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llanganda 50 kunni davom etishi aniqlandi.

G‘o‘zaning o‘suv davri shonalash – gullash fazasida ingichka tolali Marvarid navida nazorat variantda 27 kunni, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 25 kunni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 25 kunni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 25 kunni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 25 kunni tashkil etdi. Gullash – pishish davriga kelib nazoratda 52 kun, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 48 kun, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llanganda 49 kun, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 49 kun, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llanganda 47 kunni davom etishi aniqlandi.

G‘o‘zaning o‘suv davri o‘rta tolali Buxoro-8 navida nazorat variantda 125 kunni tashkil etib, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 120 kunni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 121 kunni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 121 kunni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 119 kunni tashkil etdi. O‘suv davri ingichka tolali Marvarid navida nazorat variantda 123 kunni, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 117 kunni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 118 kunni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 118 kunni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 116 kunni tashkil etdi.

Tajribada g‘o‘zaning rivojlanish davrlarining davomiyligi nazorat variantida 4-6 kunga kechikkan bo‘lsa, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 5-6 kunga, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 4-5 kunga, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 4-5 kunga, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 6 kunga tezlashganligi aniqlandi.

G‘o‘za dalalarida zararkunanda va kasalliklarga qarshi stimulyator, insektitsid, fungitsidlarni qo‘llash, dalaning fitosanitar holatini yaxshilab rivojlanish davrlarining o‘tishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shunday qilib Qashqadaryo viloyati sharoitida g‘o‘zaning o‘rta tolali Buxoro-8 navining o‘suv davri 119-125, ingichka tolali Marvarid navining o‘suv davri 116-123 kunni tashkil qildi. Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 6 kunga tezlashtirdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-sonli «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-sonli «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori.
3. Oripov R., Zeleniye promejutochniye kulturi v zemledelii Uzbekistana, ix vliyaniye na plodorodiye pochvi, urojaynost xlopchatnika i drugix kultur: Avtoreferat dok. -s.x. nauk: -Omsk. 1983. -34 s.
4. Samadov S.J., Ibragimov Z.A. O‘simliklarning o‘sishini boshqaruvchi preparatlarni qo‘llashning g‘o‘zani o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri // International Scientific Journal SCIENCE AND INNOVATION. Series D volume 1 issue 294-297 p.
5. Chorshanbiyev N.E., Nabiyev S.M., Xamdullayev Sh.A., Matniyazova X.X., Usmanov R.M., Shovqiyev J.SH. Qurg‘oqchilik sharoitida ingichka tolali g‘o‘za tizmalari va navlarida qimmatli xo‘jalik belgilarining namoyon bo‘lishi // O‘zbekiston Agrar fani xabarnomasi, 2018, №4 (74), B.35-38
6. Chorshanbiyev N.E., Hakimova M.X., Saydalov F.M. Ingichka tolali g‘o‘za navlarida hosildorlik elementlarini o‘rganish// Fan va innovatsiya. Xalkaro ilmiy konferensiya, Toshkent, 2022 yil 20 oktabr, 164-165-betlar
7. Qashqadaryo viloyatida ekilayotgan g‘o‘za navlarini yetishtirish agrotexnologiyasi. Tavsiyalar. PSUYEAITI. 2015. 30 b.
8. Hasanov B.O., Hamrayev A.SH., Eshmatov O.T., Alimuhammedov S.N. va boshqalar. G‘o‘zani zarakunanda, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish. –T.: Universitet, 2002. -379 b.

## MULKDORLAR QATLAMI – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING IJTIMOIY-IQTISODIY ASOSI

**Shaymanova Adiba Ergashevna**
**Falsafa fanlari doktori (DSc)**
**Turon universiteti,**
**Qarshi shahri, O‘zbekiston**
**Tel: 91-215-94-05**
**adiba_shaymanova@gmail.com**

**Annotatsiya:** Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida mulkdorlar qatlamining shakllanishi va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o‘rni tahlil etiladi. Xususiy mulk huquqining himoya qilinishi, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi, kichik va o‘rta biznesning qo‘llab-quvvatlanishi orqali mustahkam mulkdorlar sinfini yuzaga keltirish Yangi O‘zbekiston strategiyasining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekani ta’kidlanadi.

**Tayanch tushunchalar:** Yangi O‘zbekiston, mulkdorlar qatlami, tadbirkorlik muhiti, iqtisodiy erkinlik, taraqqiyot, strategiya, xususiy mulk.

**Аннотация:** В статье анализируется формирование слоя собственников в условиях Нового Узбекистана и его роль в социально-экономическом развитии страны. Подчёркивается, что защита права частной собственности, улучшение предпринимательской среды, поддержка малого и среднего бизнеса являются важными приоритетными направлениями стратегии Нового Узбекистана по формированию устойчивого класса собственников.

**Ключевые слова**: Новый Узбекистан, слой собственников, предпринимательская среда, экономическая свобода, развитие, стратегия, частная собственность.

**Annotation:** The article analyzes the formation of the class of property owners in the context of New Uzbekistan and its role in the socio-economic development of the country. It emphasizes that the protection of private property rights, improvement of the business environment, and support for small and medium-sized enterprises are among the key strategic priorities of New Uzbekistan aimed at creating a stable class of property owners.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 103. | *Карабаева М.А.*<br>*Мирзохитова М.* | *Полиэтилен ва титан (IV) оксиди кукунлари асосида композицион материалларнинг олиниши ва уларнинг физик-механик тадқиқодлари* | *368* |
| 104. | *Кодирова Ф.Ю.* | *Функции субстантивных словосочетаний в художественном тексте* | *377* |
| 105. | *Козлова А.А.*<br>*Нидерман И.А.* | *Инновационные подходы к изучению современной истории России и Узбекистана на примере проекта «Школа историка»* | *380* |
| 106. | *Таирова Ю.Р.* | *Искусство танца как наука: вклад розии каримовой в педагогику Узбекского танца* | *383* |
| 107. | *Хайдарова Г.Н.* | *Язык как инструмент закрепления и передачи культурных норм в различных лингвокультурах: педагогический аспект* | *386* |
| 108. | *Suyarova F.S.* | *Qashqadaryo viloyatida gilamdo'zlik madaniyati tarixi* | *388* |
| 109. | *Temirova F.K.* | *The application of modern technologies in the teaching of subjects in higher educational institutions* | *391* |
| 110. | *Mixliyeva G.Z.* | *Milliy yuksalish bosqichining xususiyatlari va insonga qo'yiladigan talablarning ortishi.* | *393* |
| 111. | *Ходжамова Н.К.* | *Частота и структура врожденных пороков желудочно-кишечного тракта* | *396* |
| 112. | *Жумаева Ш.С.* | *Культурное наследие как средство формирования национального самосознания* | *400* |
| 113. | *Захидова М.А.*<br>*Абдурашидова С.Э.* | *Особенности спектров флуоресценции молекул С60 и тонкой пленки ZnO* | *404* |
| 114. | *Узокова Г.С.*<br>*Хо'жамбердиева Ж.Н.* | *Физик тушунчаларнинг илмий мазмуни ва шакллантириш методологияси* | *407* |
| 115. | *Rahmonkulova O.A.* | *Oila institutini mustahkamlashda xotin-qizlar o'rni* | *412* |
| 116. | *Vasiyeva D.I.* | *O'zbekistonda maktabgacha ta'limning shakllanishi va rivojlanish tarixi: o'zgarishlar va muammolar* | *416* |
| 117. | *Uzokova G.S.*<br>*Jalolova A.Z.* | *Methodological foundations of conducting educational experiments in physics* | *419* |
| 118. | *Matatqulova D.Y.* | *Shaxsning manaviy qiyofasida diniy psixologiya* | *424* |
| 119. | *Tursunova I.A.* | *Qashqadaryo viloyati qishloqlarida erta turmush va ta'limdan chetlashish holatlarining ijtimoiy ildizlari (1990-2024-yillar tahlili)* | *428* |
| 120. | *Ochilova K.I.* | *O'zbekistonda mustaqillik yillarida madaniyat sohasining rivojlanishi (kino va teatr misolida)* | *431* |
| 121. | *Norbutayeva G.A.* | *Qashqadaryo viloyatida tarbiyachi-pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar* | *435* |
| 122. | *Ochilova O'.* | *The role of women in innovative projects in Qashqadaryo region* | *439* |
| 123. | *Маллаева Ф.Р.*<br>*Сайидов М.Х.* | *Қашқадарёда нефть –газ саноатининг ривожланиши мустақиллик йилларида (Шўртаннефтгаз).* | *441* |
| 124. | *Beshimova A.A.* | *O'zbekistonda olima ayollarning fan va madaniyat sohasiga qo'shgan hissasi* | *444* |
| 125. | *Yaxshiyeva Z.R.* | *Istiqlol tillarida temuriyshunoslik tadriji:tashabbus tadqiqiot, natija* | *446* |
| 126. | *Hakimova M.X.* | *G'o'zaning o'sish davrini konvalyutsion neyron* | *451* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | *tarmog'ini qo'llash orqali nazorat qilish* | |
| 127. | *Shaymanova A.E.* | *Mulkdorlar qatlami – yangi O'zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy asosi* | *454* |
| 128. | *Xaitova Y.S.* | *O'zbekiston ilm fanini rivojlantirishda o'zbek olima ayollarning o'rni* | *457* |
| 129. | *Тўраева С.Х.* | *Жамиятимиз тараққиётининг тарихий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маънавий асослари* | *460* |
| 130. | *Очилова Г.А.* | *Миллий давлатчилик тафаккурини мустаҳкамлашда миллий мафкуранинг XXI асрда янгича услублари* | *465* |
| 131. | *Dildora A.* | *O'zbek ayol olimalarning ijtimoiy faolligi va ilm-fanga qo'shgan hissasi* | *468* |
| 132. | *Очилова Н.Р.* | *Таълим жараёнида замонавий педагогик ёндашувларнинг аҳамияти* | *471* |
| 133. | *Murtazova S.B.* | *Musiqashunos olima Shahnoza Ayxodjayeva va mustaqillik davri musiqa tadqiqotlari* | *474* |
| 134. | *Murtazova S.B.*<br>*Murodova S.Q.* | *Mustaqillik yillarda o'zbek musiqa sozandalari va ularning sohadagi yutuqlari* | *477* |
| 135. | *Anvarova L.* | *Mehnat resurslarini tejashga salbiy ta'sir etayotgan muammolar* | *479* |
| 136. | *Juraqobilova X.X.* | *Kognitiv metafora til va tafakkur o'zaro uyg'unligining asosiy mexanizmi sifatida* | *480* |
| 137. | *Achilova F.K.*<br>*Shodiyev L.Sh.* | *Ijtimoiy sohada xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan "E-xizmat" platformasi orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etishning ahamiyati* | *483* |
| 138. | *Дустова М.Х.* | *Женщины-учёные Узбекистана в развитии аграрной экономики и продовольственной безопасности* | *486* |
| 139. | *Rustamova M.M.*<br>*Normurodova G.B.* | *Samarqand viloyati xotin-qizlarining ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalarga qo'shgan hissasi* | *489* |
| 140. | *Xalilova D.J.* | *Jahon va o'zbek adiblari nasrida psixologik tasvirning qiyosiy tahlili* | *494* |
| 141. | *Jabborova A.G'* | *Yangi o'zbekistonda shaxs ma'naviy tafakkurini shakllantirishda kino san'atining o'rni* | *498* |
| 142. | *Fayziyeva Sh.Sh.* | *Mintaqada innovatsion faoliyat orqali xizmat ko'rsatishni takomillashtirish* | *500* |
| 143. | *Юлдошева Ш.А.* | *Уй-жой коммунал хўжаликларида хизматлар орқали сифатни ошириш йўналишлари* | *506* |
| 144. | *Qurbonova D.M.* | *"Malika Ayyor" dostoni poetikasida barqaror formulalarning o'rni* | *509* |
| 145. | *Самиева Г.Т.* | *Теоретические основы деятельности пенсионных фондов в Узбекистане* | *511* |
| 146. | *Solixo'jayeva D.A.* | *Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim muhitida nogironligi bo'lgan talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda davlat siyosati* | *515* |
| 147. | *Toliboyeva N.O.* | *O'zbekiston olimalarining ilmiy maktablari va ilm-fan rivojiga qo'shgan hissalari* | *518* |